

## “SUVARAK”-INSONNING ICHKI INQIROZI VA IZOLYATSIYA FOJEASI (ADABIY- TAHLILIIY MAQOLA)

**Kurbonova Oysara Davronovna**  
*Buxoro xalqaro universiteti magistri*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yosh adiba Ruxsora Imomovaning “Suvarak” hikoyasi adabiy tahlil qilingan. Asarda insonning izolyatsiya, ruhiy tanazzul va o‘zlikni yo‘qotish jarayoni ramziy tasvirlar orqali ochib berilgan. Temir bak — sun‘iy hayot, suvarak — ruhiy o‘lim, havo esa — erkinlik va haqiqat timsoli sifatida talqin etiladi. Muallif qahramon hayoti misolida zamonaviy insonning o‘zini ixtiyorsiz ravishda cheklashi, virtual olamga berilib, haqiqiy muloqotdan uzoqlashishi oqibatlarini ko‘rsatadi. Maqola hikoyaning falsafiy mohiyatini ochib, o‘quvchini o‘z “bak”i haqida o‘ylashga chorlaydi.*

**Аннотация:** *В статье представлен литературно-аналитический разбор рассказа молодой писательницы Рухсоры Имамовой «Таракан». Автор произведения через систему символов раскрывает процесс изоляции, духовного кризиса и утраты человеческой сущности. Металлический бак символизирует искусственную, замкнутую жизнь, таракан — духовную смерть, а воздух — истину и свободу. На примере судьбы героини поднимается проблема современного человека, который добровольно ограничивает себя, уходя в виртуальные пространства и разрывая живые социальные связи. Статья раскрывает философскую глубину произведения и побуждает читателя задуматься о собственном «баке» и духовном пробуждении.*

**Keywords:** *isolation, spiritual decline, loss of identity, inner crisis, symbolic imagery, “Cockroach” story, loneliness, psychological degradation, artificial life, freedom, spiritual death.*

**Annotation:** *This article provides a literary and analytical overview of Ruxsora Imomova’s short story “Cockroach.” The narrative uses symbolic imagery to depict the processes of isolation, inner collapse, and the erosion of human essence. The metal tank symbolizes artificial and confined existence, the cockroach represents spiritual death, while air signifies truth and freedom. Through the protagonist’s tragic experience, the author highlights the modern individual’s tendency to self-isolate, immerse in virtual spaces, and detach from genuine human interaction. The article explores the philosophical depth of the story and encourages readers to reflect on their own “tank” and the need for spiritual awakening.*

**Kalit so‘zlar:** *izolyatsiya, ma’naviy tanazzul, insoniylik, ichki inqiroz, ramziy obrazlar, “Suvarak” hikoyasi, yolg‘izlik, iztirob, sun‘iy hayot, erkinlik, ruhiy o‘lim.*

**Ключевые слова:** *изоляция, духовная деградация, потеря личности, внутренний кризис, символические образы, рассказ «Таракан», одиночество, психологический упадок, искусственная жизнь, свобода, духовная смерть.*

**Keywords:** *isolation, spiritual decline, loss of identity, inner crisis, symbolic imagery, "Cockroach" story, loneliness, psychological degradation, artificial life, freedom, spiritual death.*

Yosh, iste'dodli ijodkor Ruxsora Imomovanning "Suvarak" hikoyasini o'qir ekanman, suvaraklar yashash muhitida yashab, ma'nan suvarakka aylangan qiz menga Frans Kafkaning "Evrilish" ini, F. Dostoyevskiyning "...muzlikda ikki oyoq bilan emas, bir oyoqda turib bo'lsa ham yashash - o'lib ketishdan afzal"..., deya hayqirayotgan qahramonini eslatadi. Ammo "Suvarak" qahramoni esa bakda... Tasavvur qiling... Qorongu, tor bak ichidasiz. Havo yo'q, yorug'lik yo'q... Faqat mo'ylovlarini o'ynatib turgan bitta suvarak bor, xolos. U ham ko'zingizga qaramaydi. Demak, muloqot ham yo'q. . Bu hikoya bir qarashda istamagan insoniga turmushga chiqib, barcha huquqlari poymol qilingan, mehrdan, g'amxo'rlik va parvarishdan mahrum ayol hayotini ham eslatadi

Insonni qiynagan savollar, jumboqlari — ko'pincha eng oddiy kuzatuvlardan boshlanadi. Ba'zan ilmiy qiziqish, ba'zan bilishga chanqoqlik, ko'rganingizni qilib ko'rish insonni kutilmagan manzillarga-tasodiflarga yetaklaydi. "Suvarak" hikoyasi ham oddiy bir kuzatuvdan — suvarakning havosiz joyda qancha yashashi haqidagi savoldan boshlanadi.

Ammo bu savol qizni mutlaqo boshqa olamga yetaklaydi, insoniylikning yemirilish jarayoni-ma'naviy his-tuyg'ularning yo'qolishiga olib keladi. Ya'ni bu hodisa psixologiyada "izolyatsiya fenomeni" deyiladi.

Izolyatsiya fenomeni — bu insonning atrofdagilar, jamiyat, muloqot va hatto o'z ichki dunyosidan ajralib qolishi jarayonini ifodalovchi tushuncha.

Boshqacha aytganda, bu yolg'izlik, ajralish, ruhiy chekinish, muloqotga bo'lgan ehtiyojning buzilishi kabi holatlarni o'z ichiga oladigan murakkab psixologik va ijtimoiy hodisadir, deyiladi psixologik adabiyotlarda.

Adabiyotshunoslikda "izolyatsiya fenomeni" — bu: qahramonning jamiyatdan chetlashishi, muhit bilan bog'lanishlarning uzilishi, yolg'izlik va ruhiy inqiroz, shaxsning o'zlikdan ajralishi kabi motivlarni tushuntirish uchun ishlatiladi. Masalan: Kafka, Camus, Dostoyevskiy, Chexov, Salinger asarlarida bu fenomen ko'p uchraydi.

"Suvarak" da ham temir bak ichidagi tajriba asta-sekin ruhiy izolyatsiyaga, so'ng esa halokatga aylanganiga guvoh bo'lamiz. Asar shaxsning jamiyatdan, tabiatdan va eng muhimi — o'zidan uzoqlashish fojeasini yorqin tasvirlaydi.

Hikoyada ilmiy qiziqish ortidan o'zini temir bak ichiga qamagan qizning fojiali hayoti, uning bak ichida yashab qolishi, vaqt o'tib farzandlar ko'rishi bilan davom etadi. Ammo bu farzandlar tug'ma nuqsonli — gapira olmaydi, fikr bildirolmaydi. Ularning butun borligi — qorong'u temir bak ichidagi instinktiv hayot.

Bak tasodifan teshilganda havo kiradi — ammo ular uchun bu najot emas, balki o'lim bo'ladi. Chunki ular ozodlikka tayyor emas edilar.

Bu voqea orqali muallif insonning ruhiy tanazzuli, izolyatsiya va ma'naviy o'lim jarayonini ramziy tasvirlaydi. Asar qahramonlari va ularning ramziy tasviriga e'tibor

qaratadigan bo'lsak, qiz — insonning o'zi. Qahramonning o'zini bak ichiga qamashi — insonning o'z qo'li bilan o'zini cheklashi, yolg'izlikka o'zini mahkum qilishidir. U ilm deb o'ylagan tajribasi aslida hayotdan uzilish, insoniylikdan uzoqlashishning boshlanishi bo'ladi. Qizning suvaraklar hayotiga moslashib borishi — ma'naviyatdan ajralgan insonning asta-sekin instinktsiz hayotga o'tib ketish jarayonidir. Suvarak — tuban hayot timsoli. Suvarak — faqat tiriklik uchungina yashaydigan mavjudot. Unda na ma'naviyat, na maqsad, na ruhiy yuksalish bor. Asar orqali muallif shuni eslatadi:

“Agar inson ham faqat tirik qolish uchun yashasa, uning hayoti ham suvaraknikidan farq qilmay qoladi.”

Farzandlar — tafakkursiz, o'z mustaqil fikriga ega bo'lmagan avlod ramzi. Gapira olmaydigan, fikrlay olmaydigan farzandlar — ma'naviy yuksalishdan uzilgan kelajak avlod timsolidir. Ular bakdan chiqa olmaydi, havo ularga yot. Demak, ular erkinlikka tayyor emas — yillar davomida izolyatsiyaga moslashgan. Havo kirganda ularning halok bo'lishi — haqiqatni ko'tara olmaydigan jamiyat obrazidir. Asarda ko'tarilgan muammo: izolyatsiya va o'zlikni yo'qotish. Asarning markazida insonning jamiyatdan va o'zligidan ajralib qolish jarayoni turadi. Temir bak — sun'iy hayot, yopiq makon, fikr va his-tuyg'ulardan uzilgan jamiyat ramzi. Havo — erkinlik, haqiqat, ma'naviy nafas. Suvarak esa — ruhiy o'limning belgisi.

Bugungi kunda bu ramzlar o'ta dolzarblik “mavqeyi”ga ko'tarilib bormoqda. Ijtimoiy muloqotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydigan raqamli asrda insonlar o'zlarini “bak”ka — smartfonlar ekranlariga, virtual olamlarga, yolg'izlikka qamab olishmoqda. Ular na tabiiy muloqot, na hissiy bog'lanishga intiladi. Shu tariqa inson asta-sekin “sun'iy hayot”ga moslasha bormoqda. Bu jarayon — ma'naviy tanazzul ko'rinishidir. “Suvarak” — faqat fantastik tajriba emas. U bugungi izolyatsiyalashgan, ekran ortidagi hayotni yashayotgan insonlar uchun ogohlantirishdir. Muallif ramzlar orqali shunday deb turgandek:

“Har kimning o'z bak'i bor. Va u bakdan chiqish uchun jur'at kerak.”

Inson o'zini cheklashni bas qilmasa, havo — ya'ni erkin fikr, ma'rifat, haqiqat — unga yot bo'lib qoladi. “Suvarak” hikoyasi insonning ichki tanazzuliga nazar tashlashga undaydigan chuqur falsafiy asardir. U bizga shunday savol bilan murojaat qiladi: Biz qaysi bak ichida yashayapmiz? Bizni suvarakka aylantirayotgan odatlar qaysi? Va biz o'sha qopqoqni ochishga, tashqariga — hayotga, havoga chiqishga tayyormizmi?

Bu hikoya avvalo o'zini anglash, ma'naviy uyg'onish, izolyatsiyadan chiqishga chorlaydi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Imomova R. Suvarak hikoyalar to'plami
2. Kafka F. Metamorfoz (Evrilish). — Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 2012.
3. Dostoyevskiy F.M. Inson va jamiyat haqida mulohazalar. — Moskva: Eksmo, 2010.
4. Karimov N. O'zbek hikoyachiligi poetikasi. — Toshkent: Fan, 2008.

5. Eshonqulov J, Ruhiy tahlil metodi xususida, O`zbek tili va adabiyoti-  
Toshkent, 1997-yil, 2-son